

**Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 26-noyabragi 05/61-60-42-  
sonli xati ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar  
to'g'risida ma'lumot.**

Institutda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida" 2025-yil 21-noyabrdagi F-60-son Farmoyishi 1-ilovasining 42-bandida hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 26-noyabragi 05/61-60-42-sonli xati ijrosini ta'minlash maqsadida "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mazmun-mohiyatini o'rganish" mavzusidagi maxsus kurs dasturi asosida barcha ta'lim yo'nalishlari va kurslar kesimida darslar tashkil etildi.

"O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mazmun-mohiyatini o'rganish" mavzusidagi maxsus kurs dasturi asosidagi dars mashg'ulotlarini institutning Tarix va falsafa kafedrasi professor-o'qituvchilari B.Nazirov, M.Bebitov, P.Normamatova, I.Norbo'tayev, B.Mamarajabov, A.Usmonov hamda M.Toshboboyevalar tomonidan o'kazildi.

"O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mazmun-mohiyatini o'rganish" mavzusidagi darslar 2025-yil 1-2 dekabr sanalarida har bir fakultet kesimida barcha talabalarni to'liq qamrab olgan holda tashkil etildi.

Filologiya fakulteti talabalari uchun Norbo'tayev Islom tomonidan tashkil etilgan Konstitutsiya dars mashg'ulotlarining asosiy maqsadi talabalarda Konstitutsiyaga hurmat, qonuniylik prinsiplariga sadoqat ruhini shakllantirish hamda yoshlar o'rtasida huquqiy madaniyatni keng targ'ib qilishdan iborat bo'ldi. Darslar interaktiv metodlar asosida olib borilib, talabalarning faol ishtiroki ta'minlandi.




Mashg'ulotlarda Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati, uning asosiy tamoyillari, fuqarolarga berilgan keng huquq va erkinliklar haqida targ'ibot xarakteridagi batafsil ma'lumotlar berildi. Ayniqsa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada amalga oshirilgan o'zgarishlarning yoshlar hayotiga ta'siri, davlatning inson manfaatlarini ustuvor qo'ygan siyosati haqida tushuntirish ishlari olib borildi. Talabalar bilan savol-javob, fikr-mulohaza almashinuvi va muhokama shaklidagi faol usullar qo'llanib, mavzu bo'yicha ongli yondashuv va tushunchalar mustahkamlandi.



Ushbu darslar yakunida talabalar Konstitutsiyaning jamiyat barqarorligi, qonun ustuvorligi va fuqarolik mas'uliyatini oshirishdagi beqiyos ahamiyatini chuqur anglab oldilar. Mashg'ulotlar davomida Norbo'tayev Islom yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, ularda yurtning asosiy qonuniga nisbatan faxr, hurmat va mas'uliyat hissini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratdi. Darslar yakunida talabalar Konstitutsiyani o'rganishga doir targ'ibot materiallari bilan tanishtirildi va amaliy topshiriqlar orqali mavzu bo'yicha bilimlarini mustahkamlashdi.



2025-yil 1-2 dekabr sanalarida Pedagogika fakulteti talabalari uchun Toshboboyeva Munavvar tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mazmun-mohiyatini o‘rganish” mavzusidagi maxsus kurs dasturi asosida dars mashg‘ulotlari tashkil etildi. Ushbu darslardan ko‘zlangan maqsad, yosh avlod ongiga Bosh Qomusimizdagi insonparvar, demokratik va huquqiy davlat qurish g‘oyalarini chuqur singdirish, ularning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash va mamlakatdagi islohotlarga daxldorlik tuyg‘usini oshirishdan iborat bo‘ldi. Mashg‘ulotlar davomida talabalarga Konstitutsiyaning yangilangan normalari, xususan, inson huquqlari va erkinliklarining ustuvorligi, ijtimoiy davlat tamoyillari hamda yoshlarga oid moddalar batafsil tushuntirildi.



Mashg'ulotlar davomida Toshboboyeva Munavvar targ'ibotning samarali usullaridan foydalanib, nafaqat qonun moddalarini o'rgatish, balki ularning kundalik hayotdagi amaliy ahamiyatini ochib berishga alohida e'tibor qaratdi. Talabalar bilan Konstitutsiyada belgilangan ta'lim olish huquqi, mehnat huquqi va jamoat ishlarida ishtirok etish kabi me'yorlar bo'yicha qizg'in muloqotlar tashkil etildi. Ayniqsa, huquqiy savodxonlikni oshirish, har bir fuqaro o'z Bosh Qomusini bilishi va unga amal qilishi fuqarolik burchi ekanligi targ'ib qilindi. Bu orqali talabalarda Vatan taqdiriga befarq bo'lmaslik, adolat va qonun ustuvorligi g'oyalariga sodiq bo'lish kabi fazilatlar shakllantirish ko'zlandi.



Mazkur maxsus kurs dars mashg'ulotlari yuksak targ'ibot-tashviqot ruxida o'tib, Pedagogika fakulteti talabalarining Konstitutsiya haqidagi bilimlarini tizimlashtirishga xizmat qildi. Ushbu kurs O'zbekiston yoshlariga Konstitutsiyaviy qadriyatlarni chuqur anglatish, ularni milliy g'urur va fuqarolik mas'uliyati ruhida tarbiyalash uchun muhim maydon vazifasini o'tadi. Dars natijalari talabalar orasida huquqiy onglilik darajasini oshirish, davlatimizning huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan amaliy qadam bo'ldi.



2025-yil 1–2 dekabr kunlari Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti talabalari uchun B.Nazirov, M.Bebitov, P.Normamatova hamda Usmonov Abdumo‘min tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mazmun-mohiyatini o‘rganish” mavzusidagi maxsus kurs doirasida ikki kunlik dars mashg‘ulotlari tashkil etildi. Ushbu tadbir asosan yoshlarni Konstitutsiyamizning asosiy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash, davlatimizning huquqiy asoslarini chuqur anglash va fuqarolik ongini yuksaltirish maqsadida targ‘ibot xususiyatiga ega tarzda tashkil etildi. Darslar davomida talabalar nafaqat Konstitutsiyaning moddalari bilan yaqindan tanishishdi, balki uning hayotimizdagi amaliy ahamiyati, inson huquqlari va erkinliklari kafolati sifatidagi roli haqida keng tushuncha oldilar.



Birinchi kun mashg'ulotlari Konstitutsiyaning tarixiy shakllanishi, 1992-yil 8-dekabrda qabul qilinganligi va keyingi yillarda kiritilgan o'zgartirishlar, ayniqsa 2023-yil 30 aprelda o'tkazilgan referendum asosida xaqimiz tomonidan ma'qullangan O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyatiga bag'ishlandi. B.Nazirov, M.Bebitov, P.Normamatova talabalarga Konstitutsiyamizning xalqaro standartlarga to'la javob beradigan demokratik hujjat ekanligini ko'plab misollar bilan tushuntirib, uni "davlatimizning muqaddas kitobi" deb ta'rifladi. Talabalar guruhlarda muhokama olib borib, Konstitutsiyada belgilangan fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini kundalik hayotdagi misollar bilan bog'lab tahlil qilishdi. Bu jarayon yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini yanada kuchaytirishga xizmat qildi.



Ikkinchi kun darslarini A.Usmonov olib bordi. Dars mashg'ulotlari Konstitutsiyaning amalda qo'llanilishi, sud-huquq islohoti va "Yangi O'zbekiston" strategiyasidagi o'rni haqida bo'ldi. Talabalar videomateriallar, infografikalar va real hayotdan olingan misollar orqali mamlakatimizda inson huquqlari himoyasi qay darajada ta'minlanayotganini ko'rishdi. Mashg'ulot yakunida o'tkazilgan savol-javob

va kichik viktorinada faol ishtirok etgan talabalar esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi. Umuman, ikki kunlik targ'ibot-tashviqot ruhidagi ushbu dars mashg'ulotlari talabalarning Konstitutsiyaga bo'lgan hurmat-e'tiqodini oshirdi hamda ularni huquqiy madaniyatli fuqaro bo'lib yetishishga undadi.



2025-yil 1-2 dekabr kunlari Aniq va tabiiy fanlar fakulteti talabalari uchun professor B.Mamarajabov rahbarligida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32 yilligi munosabati bilan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mazmun-mohiyatini o'rganish" mavzusidagi ikki kunlik targ'ibot-ma'rifiy kurs muvaffaqiyatli tashkil etildi. Asosiy maqsad talabalarda vatanparvarlik, yuksak huquqiy ong va davlatning Bosh Qonuniga hurmat tuyg'usini kuchaytirish bo'ldi. Mashg'ulotlar interaktiv shaklda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning tarixiy ahamiyati, inson huquqlari va erkinliklari hamda davlat boshqaruvi tizimidagi o'zgarishlarni chuqur o'rganishga qaratildi. Tadbirda video-materiallar, infografikalar va taqdimotlardan faol foydalanilib, Konstitutsiyaviy me'yorlarning amaliy hayotdagi tatbig'i tushuntirildi.



Birinchi kun mashg'ulotlari Konstitutsiyaning qabul qilinish tarixi, uning xalqaro standartlarga mosligi va mamlakatdagi demokratik islohotlarning mustahkam huquqiy asosi sifatidagi o'рни haqidagi ma'ruzalarga bag'ishlandi. Talabalar guruhlarda ishlash orqali Konstitutsiyada kafolatlangan fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini real hayotiy misollar asosida tahlil qildilar, bu esa ularning huquqiy savodxonligini sezilarli darajada oshirdi. Ikkinchi kun esa "Yoshlar – davlatimiz tayanchi" tamoyili asosida o'tkazilib, bo'lajak kadrlar – Aniq va tabiiy fanlar yo'nalishi talabalarining davlat qurilishidagi faol ishtiroki va konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishdagi mas'uliyati kabi muhim mavzularga urg'u berildi. Bu yondashuv yoshlarning nafaqat o'z sohalarida, balki mamlakat taraqqiyotida ham faol ishtirok etishga undadi.



Xulosa qilib aytganda, Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida 2025-yil 1-2 dekabr sanalarida barcha fakultetlar kesimida tashkil etilgan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mazmun-mohiyatini o'rganish" mavzusidagi maxsus kurs dars

mashg'ulotlari keng ko'lamli targ'ibot tadbiri sifatida yuksak samaradorlik bilan yakunlandi. Institutning barcha talabalari to'liq qamrab olinishi, ushbu ma'rifiy tashabbusning qanchalik muhim va strategik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Ikki kunlik darslar talabalarning Konstitutsiyaviy savodxonligini tubdan oshirishga, Bosh Qomusimizning tarixiy o'rni, inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlovchi asosiy qoida-tamoyillari hamda davlat boshqaruvidagi o'zgarishlar haqidagi bilimlarini chuqurlashtirishga xizmat qildi. Ushbu kurslar yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, ularda qonun ustuvorligiga hurmat va Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usini shakllantirish uchun muhim poydevor yaratdi.

Mazkur maxsus kurs mashg'ulotlari institutning yosh kadrlar orasida vatanparvarlik va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishdagi faol pozitsiyasining amaliy ifodasi bo'ldi. Talabalar kurs davomida olingan bilim va ko'nikmalarini o'zlarining kundalik hayotlarida qo'llashga, qonunlarga rioya etishga va mamlakatimizdagi demokratik o'zgarishlarda faol ishtirok etishga undaladi. Tadbirning keng qamrovli o'tkazilishi institut miqyosida konstitutsiyaviy ma'rifat ishlarining tizimli va uzluksiz ekanligini tasdiqladi, shuningdek, jamiyatning barcha sohalari uchun yetuk va huquqiy jihatdan bilimdon mutaxassislarni tayyorlash yo'lidagi muhim qadam bo'ldi.

**Tarix va falsafa kafedrasi mudiri**



**D.Yakubova**